

# O'ZBEKISTONDA NEFT-GAZ SANOATI RIVOJLANISHINING IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI

Qarshi davlat universiteti talabasi: **Sh. Butayarov**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda neft-gaz sanoati rivojlanishining imkoniyatlari hamda muammolari o'rganilgan va tahlil qilingan. Bu sohani rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Neft- gaz, texnologiya, sanoat, energetika, korxona, eksport

## OPPORTUNITIES AND PROBLEMS OF OIL AND GAS INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Student of Karshi State University: **Sh. Butayarov**

**Abstract:** In this article, opportunities and problems of oil and gas industry development in Uzbekistan are studied and analyzed. Proposals and recommendations for the development of this area have been developed.

**Key words:** Oil and gas, technology, industry, energy, enterprise, export

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, xususan, sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik-texnologik jihatdan yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti va o'sish sur'ati real sektor korxonalari barqarorligiga, ularning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq. Shu nuqtai-nazardan, har qanday davlat sanoat korxonalarini rivojlantirish va ularning barqarorligini ta'minlashga asosiy e'tiborni qaratadi.

Ma'lumki, O'zbekiston neft-gaz sanoati mamlakat energetika xavfsizligini ta'minlash nuqtai-nazaridan iqtisodiyotning strategik sohalaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda neft va gaz zaxiralari, ularni qidirish va o'zlashtirish mamlakatning energetika xavfsizligini ta'minlash imkonini berdi. Tabiiy gaz mamlakatning asosiy eksport resurslaridan hisoblansa, qazib olinayotgan neft ichki talabni to'liq qondirmoqda.

1997 yilda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirilgan bo'lib, uning yillik qayta ishlash quvvati 2,5 million tonna uglevodorod xomashyosini tashkil qiladi. Ushbu korxonaning texnologik jarayoni to'liq zamonaviy texnologiyalarga asoslanadi va u quyidagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi: suyultirilgan neft gazi, yengil nafta, rivormat, reaktiv yoqilg'i, dizel yoqilg'i va mazut.

Mamlakatimizda Yalpi ichki mahsulot uzoq davr mobaynida har yili kamida 8 foizga o'sishi sur'atlarini ta'minlash bo'yicha o'ta muhim vazifalar turgan pallada O'zbekiston neft-gaz tarmog'ining barqaror rivojlanishi ulkan ahamiyatga ega bo'lmoqda. Biz korxonalar faoliyati yo'nalishini shunday qayta tashkil qilishga urinyapmizki, eng asosiy e'tibor tabiiy gaz kabi strategik xom ashyo eksportini oshirishga emas, uni qayta ishlash va yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, sifati va ekologiya talablari bo'yicha jahon standartlariga javob beradigan, yuqori likvidli neft-gaz va kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha o'z quvvatlarimizni rivojlantirishga qaratilishi lozim.

O'zbekiston neft-gaz tarmog'ini rivojlantirishning har bir ustuvor yo'nalishini ko'rib chiqamiz. Uglevodorodlar zaxiralarini oshirish yo'li bilan resurslar bazasini yanada kengaytirish neft-gaz tarmog'i samarali faoliyatining asosini tashkil qiladi. Asosiy negizi neft va gazdan iborat bo'lgan bu zaxiralar mamlakat iqtisodiyotining yonilg'i-energetika resurslariga tobora oshib borayotgan ehtiyojini ta'minlaydi. Bunday sharoitlarda, neft va gaz konlarini izlash va respublikaning uglevodorod resurslarini yanada oshirish maqsadida, geologik qidiruv jarayoniga yangi hududlar va chuqur joylashtirilgan majmualarni jalb qilish masalasi ko'ndalang turibdi. Eng istiqbollilari sifatida o'rganish uchun quyidagi yo'nalishlarini ajratish mumkin: neft va gaz konlarini izlash maqsadida – paleozoy qatlamlari (Ustyurt, Buxoro-Xiva va Farg'ona mintaqalari); Surxondaryo viloyatida tuz ostidagi yura qatlamlari; Surxondaryo mitaqasidagi Uchqizil-Mirshodin zonasidagi tegishli qatlamlar; yangi hududlar (O'rta-Sirdaryo depressiyasi va Zarafshon chuquri). 2021 yilgacha bo'lgan davr ichida quyidagi hududlarda geologik qidiruv ishlarini o'tkazishga mo'ljallangan investitsion loyihalarni amalga oshirish belgilangan: Qo'ng'irot uchastkasida; Boysun va Surxon investitsion bloklari; Xorazm va Meshekli-Tuzkoy investitsion neft-gaz uyumlari mavjud bloklar. Uglevodorodlar bazasini kengaytirish maqsadida respublikada neft va gaz uyumlarini qidirishning an'anaviy yo'nalishlariga zarar yetkazmagan holda noan'anaviy uglevodorodlar manbalarini izlash va o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar miqyoslari asta-sekin ortib

bormoqda. Belgilangan geologik qidiruv ishlarining amalga oshirilishi 2022 yilga qadar O'zbekiston Respublikasining uglevodorodlar borasidagi salohiyatini 2014 yilda berilgan baholarga nisbatan 1,5 baravarga oshirishga imkon beradi.

Uglevodorod xomashyosini qazib chiqarish tizimiga iqtisodiy jihatdan rentabelli va samarali energetik texnologiyalarni joriy qilish tarmoq faoliyatining o'ta muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bunga turli yo'llar bilan erishiladi.

Qator ochilgan neft-gaz konlarini jadal ishga tushirish, noan'anaviy va qazib chiqarilishi murakkab bo'lgan xomashyolarni qazib chiqarish neft-gaz qazib chiqarish korxonalari faoliyatining ustuvor yo'nalishi hisoblanib, bu o'z navbatida konlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni faollashtirish, unumli qatlamlarni ochish bo'yicha eng samarali texnologik vositalarni tanlash va uglevodorodlar ko'payishini jadallashtirishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda, xorijiy kompaniyalarni jalb qilgan holda, neft qazib chiqarish hajmini ko'paytirishni ta'minlovchi yangi texnologiyalardan keng foydalanish dasturi tayyorlanmoqda.

Respublikani bundan keyin ham gaz bilan barqaror ta'minlash va tabiiy gaz eksportini oshirish uchun yoqilg'ining muqobil turi sifatida suyultirilgan uglevodorod gazini ishlab chiqarish hajmlari o'sishini ta'minlash tarmoq faoliyatining alohida yo'nalishi hisoblanadi. Gazni qayta ishlash sohasi rivojlanishi istiqbollari ham suyultirilgan gaz, kondensat, oltingugurti ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, ham kimyoviy sintez uchun tabiiy gazning barcha resurslaridan chuqurroq foydalanish va yuqori likvidli mahsulotlarni olish bilan bog'liqdir.

Hozirgi vaqtda «O'zbekneftgaz» MXK tizimida tabiiy gazni qayta ishlash yo'nalishida quyidagi korxonalar faoliyat yuritadi: Muborak GQZ, SHo'rtan gaz-kimyoy majmuasi va «SHo'rtanneftgaz» USHK. «SHo'rtanneftgaz» USHK propanbutan aralashmasini olishga mo'ljallangan beshta qurilmalarining suyultirilgan gaz bo'yicha bir yillik umumiy quvvati yiliga 250,0 ming tonna, kondensat bo'yicha – qariyb 100 ming tonna, oltingugurt bo'yicha – 5 ming tonnagacha bo'lgan miqdorni tashkil qiladi va bu oltingugurt tozalovchi aminli qurilmasi bilan

oksidlangan gazning butun hajmini qayta ishlab, oltingugurtga aylantirishni ta'minlaydi. 2012-2013 yillarda «Muborak GQZ» USHKda gazni qayta ishlash yillik quvvati 4,0 mlrd. M<sup>3</sup> ga teng suyultirilgan uglevodorodli gazni ishlab chiqarish bo'yicha uchta qurilma ishga tushirildi. Butun korxona bo'yicha esa bir yilda qariyb 240 ming tonna suyultirilgan uglevodorodli gaz va 110 ming tonna barqaror kondensat ishlab chiqariladi.

Tabiiy gaz tarkibidan qimmatbaho komponentlarni yanada chuqur ajratib olish ishlari 2001 yilda SHo'rtan gaz-kimyo majmuasi foydalanishga topshirilganligi bilan bog'liq bo'lib, u yerda ilk bor etan, propan, butan va gaz kondensati bir-biridan ajratilishini ta'minlaydigan tabiiy gazni qayta ishlashning kriogen texnologiyasi qo'llanilgan. Ushbu majmuada ajratib olinadigan etan asosida etilen ishlab chiqarish hamda polietilen mahsulotini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. «GTL loyihasini» xom ashyo gazi bilan barqaror ta'minlash maqsadida hozirgi vaqtda «SHo'rtan Bosh inshootlarining qurilmalarini modernizatsiyalash va SHo'rtan-SHGKM BI gaz quvurini qurish» yo'nalishida ishlar olib borilmoqda. SHo'rtan bosh inshootlarining mavjud qurilmalarini qayta ta'mirlash va modernizatsiyalash bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlar ishlab chiqilmoqda, korxonalar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarilishining hisob-kitoblari qilindi va sarf-xarajatlar taxminiy baholanmoqda. Propan butan aralashmasini oluvchi qurilma (UPPBS) dan tozalangan gaz SHo'rtan GKMga uzatilishi hisobiga SHo'rtan bosh inshootlarini texnik qayta jihozlash borasidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bir yilda etilen ishlab chiqarish hajmini 152,0 ming tonnagacha va polietilen ishlab chiqarish hajmini – 138,0 ming tonnagacha oshirishga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, 148 mln.m<sup>3</sup> gacha bo'lgan hajmdagi siqilgan gazni sotish (45 ta avtomobil gaz quyish kompressor shaxobchalar(AGNKS)lar orqali) va har yili avtotransport vositalariga 30 ming donagacha suyultirilgan gaz uskunalari o'rnatish (10 ta sertifikatlangan markazlarda) ko'zda tutilgan. Loyihalarning amalga oshirilishi ishlab chiqarilayotgan neft mahsulotlari va 455,5 mln m<sup>3</sup> oksidli

gazning sifatini oshirish (Yevro 3 va undan yuqori) hamda 2,49 mlrd. dollarlik hajmda mahsulot va xizmatlar eksportini amalga oshirishga imkon beradi.

«2017-2021 yillarda tayyor mahsulot, butlovchi qismlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi»ni amalga oshirish tarmoq rivojlanishining eng muhim yoʻnalishi hisoblanib, unga muvofiq avval import hisobiga olib kelinadigan tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish mahsulotini ishlab chiqarishni har yili oshirib borib, 2020 yilda 14,7 foizdan 2021 yilgacha 35,5 foizgacha koʻpaytirish koʻzda tutilgan. Dasturga raqobatbardosh import oʻrnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni nazarda tutadigan 32 ta loyiha kiritilgan. Ularning amaliyotga joriy etilishi butun tarmoq boʻyicha mahalliyashtiriladigan mahsulot ishlab chiqarish hajmini 2019 yilda 87,793 mlrd. soʻmdan 1042,022 mlrd. soʻmgacha oshirishga imkon yaratadi. Import oʻrnini bosish hisobiga olinadigan samara 200,0 mln. AQSH dollaridan ortadi hamda 1300 ta yangi ish oʻrinlari tashkil etiladi.

Ushbu ijobiy natijalarga erishish, Oʻzbekiston neft-gaz sanoatini barqaror rivojlantirishda, fikrimizcha, eʼtibor quyidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilmogʻi lozim:

- ✓ xom-ashyo bazasi holati va uni oshirish;
- ✓ tarmoqning faoliyat turlarini kengaytirish;
- ✓ ishlab chiqarishning barcha boʻgʻinlarida xarajatlarni kamaytirish (qidiruv, qazib chiqarish, qayta ishlash, tashish, saqlash, sotish va boshqalar);
- ✓ ishlab chiqarishda ekologik xavfsizlikni taʼminlash.

Yuqoridagilarga mos ravishda, Oʻzbekiston neft-gaz sanoatini barqaror rivojlantirish quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- ✓ neft-gaz sanoatidagi operatsiyalarni amalga oshirishni tartibga solishning huquqiy bazasini takomillashtirish; neft va gaz ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlariga investitsiyalar jalb qilishni jadallashtirish;
- ✓ mahalliy neft va gazdan turli xil sintetik mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beruvchi zamonaviy qayta ishlash tizimini rivojlantirish; neft va gaz

konlarini aniqlash bo'yicha geografik tadqiqotlarni amalga oshirish;

✓ neft va gazdan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va ularning assortimentini kengaytirish hisobiga eksportni diversifikatsiyalash;

✓ milliy tarmoqning jahon neft-gaz sanoatiga integratsiyalashuvini xalqaro darajada rag'batlantirish.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Jamolhoji I. N. Marg'ilon – O'zbekiston neft sanoatining beshigi / Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari. – Andijon, 2015. – B. 178–180.
2. Ismoilov S. I. Neft-gaz sanoati – mustaqil O'zbekiston taraqqiyotining asosi / "O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari yosh olimlar tadqiqotlarida: asosiy yo'nalishlar va yondashuvlar" mavzusidagi Respublika yosh olimlarining ikkinchi an'anaviy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 274–276.
3. Sultonov Sh.A., Navotova D.I. O'zbekiston neft-gaz sanoati rivojlanishining geografik xususiyatlari // Geografiyaning mintaqaviy muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Jizzax: JDPI, 2017. – B. 138-139.
4. Taraxtiyeva G.K. Osobennosti formirovaniya natsionalnogo innovatsi-onnogo klastera neftegazovoy otrasli Respubliki Uzbekistan. – O'zbekiston «Neft va Gaz » – may, 2012.